

“DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR” ASARIDA QO’LLANILGAN O’XSHATISHLARNING LISONIY TAHLILI

Jo’rayeva Mehriniso Safar qizi

TerDU, o’zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O’tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asari tarkibida qo’llanilgan an’anaviy hamda xususiy-muallif o’xshatishlari tahlil qilinib, badiiy asardagi obrazlilik va jozibadorlik imkoniyatlari yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, o’xshatish, an’anaviy, xususiy-muallif o’xshatishlari, o’xshatish subyekti, o’xshatish etaloni, o’xshatish asosi va ko’rsatkichi, obrazlilik, ta’sirchanlik, ifodaviylik.*

O’xshatish deb “Ikki narsa yoki voqea-hodisa o’rtasidagi o’xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to’laroq, konkreteroq, bo’rttiribroq ifodalashga aytiladi”[2,84]. O’xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta’minlashda foydalanib kelinadi. Adabiyotlarda har qanday o’xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to’rt unsur nazarda tutiladi, ya’ni: 1) o’xshatish subyekti; 2) o’xshatish etaloni; 3) o’xshatish asosi; 4) o’xshatishning shakliy ko’rsatkichlari. Masalan: Alisher tulkiday ayyor bola. Bunda: Alisher – o’xshatish subyekti; tulki – o’xshatish etaloni; ayyor – o’xshatish asosi; -day – o’xshatishning shakliy ko’rsatkichi hisoblanadi. M.Yoqubbekova o’zbek xalq qo’shiqlari lingvopoetikasiga bag’ishlangan monografiyasida o’xshatishning yana bir unsure “o’xshatish maqsadi” ham mavjudligini ta’kidlagan[3,153]. O’xshatish etaloni o’xshatish o’xshatish konstruksiyaning poetik qimmatini, estetik salmog’ini belgilab beradi. O’xshatish etaloni qanchalik original bo’lsa, o’xshatishli qurilma ham shu darajada ohorli va original bo’ladi. Badiiy matndagi o’xshatishli qurilmalar tekshirilganda ularni an’anaviy va xususiy-muallif o’xshatishlari sifatida tasniflash kerak bo’ladi.

An’anaviy o’xshatishlar og’zaki nutqda ko’p ishlatiladigan, shu sababli ta’sirchanligini yo’qotgan o’xshatishlardir[2,85]. Masalan: tulkiday ayyor, toshday qattiq, yuzlari oydek, ko’zlari charosdek, qo’yday yuvosh, otning qashqasiday ma’lum kabilar. Aslida ko’p takrorlanishi tufayli “siyqasi chiqqan” deb baholanadigan bunday qurilmalarni tasviriylik, obrazlilik maqsadida xizmat qildirish yozuvchining ijodkorlik mahoratiga bog’liq.

Xususiy-muallif o’xshatishlari yozuvchining o’z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o’xshatishlaridir. Bunday o’xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo’ladi. Har qanday o’xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo’lgan tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarining eng nozik jihatlarini

kitobxon ko'z o'ngida go'zal bo'yoqlarda gavdalantirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Masalan: Burungi so'fidan, yaqindagina kelib bir hafta yotib ketgan so'fidan asar yo'q. uning rangi machitning jaydari shamiday sap-sariq...go'yo kasaldan yaqindagina bosh ko'targan.(Cho'lpon). Keltirilgan misolda so'fining, ruhoniylar kishining so'ngan, sarg'aygan rangi masjidning jaydari shamiga o'xshatilgan. Ta'kidlash lozimki, yozuvchi tasvirdagi holat, qahramon ruhiyati uchun, favqulodda muvofiq o'xshatish etaloni tanlangan, ya'ni qahramon - ruhoniylar, sham – masjidniki, qahramon – g'arib, dardman, sham – jaydari, arzonbaho, qahramon tuganmas dard bilan adoyi tamom bo'lib bormoqda, sham – yonib tugashining ham ramziy ifodachisi. Sap-sariq sifati bilan ifodalangan o'xshatish asosidagi belgi benihoya quyuqlashib katta bir dard shaklini olgan[2,86]. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida qo'llanilgan o'xshatishlar tahlili quyidagicha:

1. Oyog'i ostida yirtilib, qamishlari qovurg'adek turtib chiqqan varrak loyga qorishib yotibdi.(5-b).Yirtilgan varrakning qamishlari turtib chiqqan qovurg'aga o'xshatilgan(xususiy-muallif o'xshatishi). Qamishlari – o'xshatish subyekti; qovurg'a – o'xshatish etaloni; varrak – o'xshatish asosi; -dek – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi.

2. Uning oldida bir savat oq gul quyosh parchasidek tovlanadi.(12-b). Bir savat gul quyoshning parchasiga o'xshatilgan(xususiy-muallif o'xshatishi). Oq gul – o'xshatish subyekti; quyosh parchasi – o'xshatish etaloni; tovlanmoq – o'xshatish asosi; -dek – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi.

3. Qondek qizargan tok barglari ohista chayqaladi.(16-b). Kuzdagi tok barglarining rangi qon rangiga o'xshatilgan(xususiy-muallif o'xshatishi). Tok barglari – o'xshatish subyekti; qon – o'xshatish etaloni; qizargan – o'xshatish asosi; -dek – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi.

4. Yong'oqdek tuxum tug'adi-da, qaqag'lab olamni buzadi.(24-b). Tovuqning tug'gan tuxumlarining hajmiga nisbatan yong'oqqa o'xshatilgan(xususiy-muallif o'xshatishi). Yong'oq – o'xshatish etaloni; -dek – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi.

5. Iste'dodsizlar esa bir zambil shag'aldek gap.(25-b). Iste'dodsizlar bir zambil shag'alga o'xshatilgan(xususiy-muallif o'xshatishi). Iste'dodsizlar – o'xshatish subyekti; shag'al – o'xshatish etaloni; -dek – o'xshatishning shakli ko'rsatkichi.

6. G'uncha tugdi...olov parchasidek yal-yal yondi.(26-b). G'unchaning tugilgandagi holati olov parchasining yonishiga o'xshatilgan(xususiy-muallif o'xshatishi). G'uncha – o'xshatish subyekti, olov parchasi – o'xshatish etaloni; -dek – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi.

7. Dunyoda soat kapgiridek tebranib turadigan haqiqatlar ham bor.(17-b). Haqiqatlar soat kapgiriga o'xshatilgan(xususiy-muallif o'xshatishi). Haqiqatlar – o'xshatish subyekti; soat kapgiri – o'xshatish etaloni; -dek – o'xshatishni shakliy ko'rsatkichi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ushbu asarda o'xshatishlar xilma-xil ko'rinish va uslublarda, o'z navbatida o'zgacha obraz va ta'sirda namoyon bo'ladi. Asar tadqiqoti natijasida xususiy-muallif o'xshatishlari an'anaviy o'xshatishlarga nisbatan ko'p

qo'llanilganligi ma'lum bo'ldi. Asar tarkibidagi har bir o'xshatish alohida mavqega ega bo'lib, asar matni pozitsiyasini saqlab turishga xizmat qiladi. Shuningdek, ifodalanayotgan obraz, voqea-hodisa, shaxs yoki harakat va holatning ta'sirchanligini yanada orttiribgina qolmasdan, kitobxon ko'z o'ngida yaqqol gavdalantirishda ham muhim rol o'ynagan. Badiiy asarlar tarkibida qo'llanilgan o'xshatishlar ijodkorning qay darajada mohirligini, qanday mahorat egasi ekanligini ham isbotlab beradi. Ayniqsa, bunday ijodkorlar ichida O'tkir Hoshimov mohirligi bilan shuhrat qozongan. Uning tadqiqot ostiga olingan "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarini ham obrazli va maftunkor o'xshatishlar jamlanmasi deya ayta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'. Hoshimov. (qissa va hikoyalar)– T: "Nurli dunyo" nashriyot uyi, 2022. - 160 b.
2. M. Yo'ldoshev. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008.
3. M. Yoqubbekova. O'zbek xalq qo'shiqlarida o'xshatish. – Toshkent, "Fan", 2005.
4. Jo'rayeva, M. (2023). MATN VA UNING ALOHIDA TA'RIFI MASALASI. Академические исследования в современной науке, 2(4), 182-186.
5. Jo'rayeva, M. (2023). TILSHUNOSLIKDA MATN MUAMMOSI VA UNING O'RGANILISHI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 58-61.
6. Xidirova, I., & Jo'rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF KINSHIP NAMES USED IN ANCIENT TURKISH DICTIONARIES. Modern Science and Research, 2(4), 716-719.